

SHARQ MUTAFAKKIRLARI ASARLARIDA AXLOQ VA AXLOQIY QADRIYATLAR MASALASINING YORITILISHI

Umirzakova Nargiza Ismailovna – *TATU Nurafshon filiali psixologi*
tel: +99890 988-27-07 e_mail: nargizaxon@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqolada shaxsning xulq-axloqini faqat soʻzdagina emas, balki haqiqatda tozalash orqali erishish mumkinligi, shundan soʻng xato va adashishdan saqlovchi, haqiqat yoʻlini tushunib olishga boshlovchi - notiq-soʻzlovchi, fikrlash maʼnosida nafsini, jonini, ruhini tozalashga qaratilgan tadqiqotlar yoritilgan.

Kalit soʻzlar: shaxs, xulq-axloq, notiqlik, nafs ruhiy kechirmalar.

Kirish. Har bir mamlakatning iqtisodiy qudrati ijtimoiy maʼnaviy hayot darajasining yuksalishi taʼlim tizimining raqobadardoshligi, ilm- fan taraqqiyoti bilan belgilanadi. Shu bois Oʻzbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish boʻyicha Harakatlar strategiyasida taʼlim sohasini tubdan takomillashtirish, taʼlim sifatini oshirish, intellektual salohiyatli jismoniy barkamol avlodni shakillantirish aniq fanlarni chuqurlashtirib oʻqitish va iqtisodiyotning turli sohalari uchun malakali kadrlarni tayyorlash ustuvor vazifalar sifatida belgilangan boʻlib, pirovardida bugungi davr talabiga javob bera oladigan taʼlim tizimini yaratish koʻzda tutildi.

Oʻzbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Miromonovich Mirziyoyev 2017-yil 15-iyun kuni Toshkentda boʻlib oʻtgan "Ijtimoiy barqarorlikni taʼminlash, muqaddas dinimizning sofligini asrash – davr talabi" mavzuidagi anjumanda soʻzlagan nutqida yosh avlod tarbiyasi haqida alohida toʻxtalib oʻtdi. "Bizni hamisha oʻylantirib keladigan yana bir muhim masala – bu yoshlarimizning odob-axloqi, yurish-turishi, bir soʻz bilan aytganda, dunyoqarashi bilan bogʻliq. Bugun zamon shiddat bilan oʻzgaryapti. Bu oʻzgarishlarni hammadan ham koʻproq his etadigan kim – yoshlar. Mayli, yoshlar oʻz davrining talablari bilan uygʻun boʻlsin. Lekin ayni paytda oʻzligini ham unutmasin. Biz kimmiz, qanday ulugʻ zotlarning avlodimiz, degan daʼvat ularning qalbida doimo aks-sado berib, oʻzligiga sodiq qolishga undab tursin. Bunga nimaning hisobidan erishamiz? Tarbiya, tarbiya va faqat tarbiya hisobidan", - deya taʼkidladi Prezidentimiz [1].

Oʻzbekiston Respublikasining davlat siyosati barkamol avlod va erkin fikrlovchi shaxsni tarbiyalash hamda komil inson gʻoyasi–milliy va umumbashariy mohiyatga ega boʻlgan, odamzodga xos eng yuksak maʼnaviy ezigulikka undaydigan olijanob shaxsni tarbiyalashga qaratilgandir.

Muhokama.

Hozirgi kunda xorij psixologiyasida axloqiy taraqqiyot bilan bog‘liq to‘rt tadqiqiy soha mavjud:

birinchisi, axloqiy xulq-atvorga doir;

ikkinchisi, o‘zga kishilarga axloqan qadrli va axloqan maqbul munosabatlarga doir;

uchinchisi, o‘z ichiga axloqiy bilimlar, tasavvurlar va mushohadalarni olgan kognitiv soha;

to‘rtinchi tadqiqiy sohaga axloqiy kechinmalar taalluqlidir. Kembel D.T., Milgram S., Bryan J., Hofman M.L., Ayzenk H.J., Kolberg, Hartshorn H.H., Mey M.A., Piaje J., MakRay D.J., Jonson R.K., Bandura A., Donald F.H., Grinder R.E., Vaytman P.H., Kosier P.

Xorij psixologlaridan J.Piaje va Kolberglar “axloqiy taraqqiyot” nazariyalarini ishlab chiqqanlar. V.A.Lefevr matematik tahlillar asosida axloqiy qarorlar bilan bog‘liq xolislik mazmuni, holis tanlov va undagi refleksiya ahamiyati xususida qator evristik taxminlarni ilgari surgan. Aynan V.A.Lefevr shaxs axloqiy qaroriga individual-psixologik xususiyatlar ta’sir qilishi mumkinligi to‘g‘risidagi ilk nazariy konsepsiyani ilgari surgan [2].

Natijalar.

O‘tmishda ajdodlarimiz insoniyatning psixologik qonuniyatlarini muayyan ilmiy yo‘nalish sifatida o‘rganmagan bo‘lsalarda, biroq allomalarning asarlari, qo‘lyozmalarida mazkur holatlarning yoritilishi, tahlili kuzatiladi. Biz sharq mutafakkirlarining psixologik qarashlari bilan tanishar ekanmiz, inson va hayvonlar psixik hayotini o‘rganishga bo‘lgan intilishi kishilar hayotining har xil tarixiy bosqichlarida ularning qanday nazariy va amaliy bilan taqozo qilganligini ba’zi qonuniyatlar qanday kashf etilganligini bilib olamiz. Ta’kidlash lozimki, allomalarning shaxs ma’naviy-ruhiy kamoloti borasidagi qimmatli fikrlari hozirgi kungacha o‘z o‘rni va ahamiyatiga egadir. Jumladan, Abu Nasr Farobiy, Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali Ibn Sino, Yusuf Xos Hojib, Abdulla Avloniy, Jaloliddin Rumiy, Alisher Navoiy, Boborahim Mashrab kabi mutafakkirlarning pedagogik-psixologik qarashlari bugungi kunda fan taraqqiyotining metodologik asosi bo‘lib xizmat qilmoqda.

“Qur’oni Karim”, Hadisi-shariflarda ham inson xulq-atvorining salbiy jihatlari xususida qimmatli fikr-mulohazalar bildirilgan. “Qur’oni Karim”da insonni axloqiy kamolga etkazishga zid xususiyatlar: manmanlik, aroqxo‘rlik va qimorbozlik,

yolgʻonchilik, boshqalarni kamsitish, badgumonlik, chaqimchilik, gʻiybatchilik, ochkoʻzlik kabilar xususida ham ibratli fikrlar bildirilgan. "Qurʻon"da insonning ruhiy va maʼnaviy kamolga etishiga toʻsqinlik qiluvchi salbiy xislatlardan biri gʻazab deb koʻrsatiladi. U ruhiy razolat sifatida talqin etiladi. Chunki gʻazab kelganda aql qochadi, inson oʻz irodasini idora qila olmay qoladi, oz manfaati, obroʻsini himoya qilaman deb, johillikka yoʻl qoʻyadi. Hatto gʻazab inson salomatligiga ham zarar yetkazadi. Shuning uchun ham Islom insonni aql va insofga, bosiqlik bilan ish tutishga, oʻz hissiyotlarini boshqara olishga chaqiradi. Chunki gʻazab kelganda chiqarilgan hukm, amalga oshirilgan xatti-harakat johillik belgisi boʻlib hisoblanadi. Hatto gʻazabni bosish bilan birga, gʻazabni qoʻzgʻagan shaxsni kechira olish darajasida oʻzini boshqara olish irodasiga ega boʻlish keraqligi ham uqtiriladi [4].

"Ol-i imron" surasining 134-oyatida "Yaxshi-yomon kunlarda infoq-ehson qiladigan, gʻazablarini ichlariga yutadigan, odamlarning (xato-kamchiliklarini) avf etadigan kishilardir. Alloh bunday yaxshilik qiluvchilarni sevadi" deyiladi. Demak, Islomda inson gʻazabi kelganda faqat oʻzini boshqara olish quvvatiga ega boʻlishgina emas, kechiruvchilik xislatiga ega boʻlishga ham chaqiriladi. Ana shunday insongina axloqan barkamol shaxs boʻla oladi.

Xulq-odob haqidagi hadislarida eng ezgu insoniy xislatlar ulugʻlanib, gunoh sifatidagi illatlar qoralanadi. Hadislarida insoniy xislatlardan ezgulik, iffat, sabr-qanoat, shukronalik kabi axloqiy xislatlar ulugʻlansa, isrofgarchilik, taʼmagirlik, ochkoʻzlik, nafsu-havoga, shahvoniy hissiyotlarga berilish, baxillik, johillik kabi illatlar, yomon xatti-harakatlar "gunoh" sifatida qoralansa, inson farovonligi, jamiyat ravnaqi uchun qilinadigan yaxshi ezgu xatti-harakatlar, faoliyat "savob" tarzida olqishlanadi. Abu Nasr Farobiy inson kamolotga yolgʻiz oʻzi erisha olmaydi. U boshqalar bilan aloqada boʻlish, ularning koʻmaqlashuvi yoki munosabatlariga muhtoj boʻladi, deb hisoblaydi. Bunga Farobiy taʼlim-tarbiyani toʻgʻri yoʻlga qoʻyish orqali erishish mumkin, deydi. Chunki maqsadga muvofiq amalga oshirilgan taʼlim-tarbiya insonni ham aqliy, ham axloqiy jihatdan kamolga etkazadi, xususan, inson tabiat va jamiyat qonun-qoidalarini toʻgʻri bilib oladi va hayotda toʻgʻri yoʻl tutadi, boshqalar bilan toʻgʻri munosabatda boʻladi, jamiyat tartib-qoidalariga rioya qiladi.

Farobiy nazariy bilimlarni egallashga kirishgan har bir kishi xulq-odobda ham qay darajada pok boʻlishi keraqligini "Falsafani oʻrganishdan oldin nimani bilish keraqligi toʻgʻrisida"gi risolasida shunday taʼriflaydi: "Falsafani oʻrganishdan avval oʻzingizni hirs-havaslardan shunday tozalashingiz lozimki, sizda maishiy va

shahvoniyat kabi noto'g'ri tuyg'ularga emas, balki kamolotga bo'lgan hirs-havas qolsin.

Bunga xulq-axloqni faqat so'zdagina emas, balki haqiqatda tozalash orqali erishish mumkin. Shundan so'ng xato va adashishdan saqlovchi, haqiqat yo'lini tushunib olishga boshlovchi (notiq-so'zlovchi, fikrlash ma'nosida) nafsini, jonini, ruhini tozalash zarur".

Abu Rayhon Beruniy ilmi, ma'lumotli kishi bo'lishning o'zini odob-axloq va nafosat bilan bog'laydi. Uning dunyoqarashida axloq masalasi insonning eng asosiy sifatlari safatida mujassamlashgan. Beruniyning fikricha, aqliy qobiliyatlar odamlarning kundalik ehtiyojlari asosida vujudga kelsa, axloqiy masalalar tarixiy taraqqiyot, odamlarning o'zaro munosabatlari bilan chambarchas bog'liq holda paydo bo'ladi va rivojlanib boradi [26; 198-b.]. Beruniy so'zlari bilan aytganda, inson Yerdagi bunyodkor va yaratuvchi kuchdir. Shuningdek, u insonning ijobiy va salbiy tomonlarini birma-bir ta'rif etadi. Masalan, olim insondagi yaxshilik, rostgo'ylik, janoblik, muruvvat, mehr-shafqat, do'stlik va jamoatchilik kabi fazilatlarni ulug'laydi. Shu fazilatlarni o'zida mujassamlashtirgan har bir inson har narsaga qodirligini, o'z eli va yurti uchun beqiyos naf keltirishi mumkinligini alohida ta'kidlaydi, bu hozir ham ta'lim-tarbiya sohasida etakchi o'rinni egallaydi. Yolg'onchilik, yomonlik, raqobatlashish, g'animlik, ichqoralik, qo'pollik, o'g'rilik, tuhmatchilik, ikkiyuzlamachilik, o'ziga bino qo'yish, hushomadgo'ylik, chaqimchilik illat sifatida qoralanadi.

Beruniy insonning ma'naviy qiyofasini, xulq-atvorini yaxshilik va yomonlik axloqiy tushunchalar bilan belgilaydi. Yaxshilik tantanasi va unga erishish oson ish emas. Umuman olganda, yaxshilik sari intilish va unga etishish katta mehnat va harakat, sabr va matonat, mustahkam iroda va yuksak axloqiy maslakni, maqsad yo'lida doimo ko'rashishni talab etadi. Ana shu ko'rash yo'lida kamolotga erishish mumkin. Bu uning (shaxsning) yaxshi tomoni olimning so'zlari bilan aytganda yomonlarning shaxobchalari ko'p, biroq ularning eng yaramasi ta'ma, g'azab, ilmsizlikdir. Bular ahmoqlikdir. Ahmoqlik esa davosi yo'q bir kasallikdir. Agar kishilar shu yomonliklardan forig' bo'lib, ilm-hikmatni egallasa, bilimlar birligini o'ziga singdirsa yaxshilik bo'ladi. Olimning fikricha, g'azab va ilmsizlik inson uchun eng kuchli va eng xaloqatli dushmandir. Ular, ya'ni razil kishilar ovqatlanganda qanday lazzat va rohat olgan bo'lsalar, o'ch olganda ham shunday rohatlanishga o'rgatadi.

Beruniy g'azab, ta'ma balosidan qutila olmagan kishilarni inson degan pok nomga sazovor emas, deb ta'lim bergan. Yuqorida lazzat va alam kabi tushunchalarning mazmunini bayon etar ekan, alloma alam, ta'ma, o'ch olish singari

salbiy tushunchalarni yaxshilik tushunchasiga mutlaqo yot deb hisoblaydi. Beruniy axloqsiz odamlarni qayta tarbiyalash orqali odobli, yaxshi kishilar safiga qo'shishi, axloqsiz yomon odamlar birinchi navbatda nafsoniy hirs-havasdan o'zini tozalashi, axloqiy kitoblarda zikr qilingan barcha yaxshiliklarni o'rganishi hamda yaxshilar bilan yaqin munosabatda bo'lishi, yaxshilarga taqlid qilib yashash orqali odam o'zini-o'zi qayta tarbiyalashi mumkinligini isbotlashga uringan. Yaxshi kishilarga ergashish bu faqat bolalargina emas, balki barcha jamiyat a'zolariga ham xos xususiyat ekanligini o'sha zamonda aytilgan bo'lsada, ular hozirgi zamon pedagogik-psixologiyasining ham asosiy yo'nalishlaridan biri hisoblanadi.

Yaxshi xulqqa intilgan, namunaga taqlid qilgan o'quvchi eng avvalo o'z imkoniyatlarini tushuna boradi, jamoadagi o'rnini to'g'ri belgilaydi. Inson ongli va tabiatning eng mavjudoti bo'lgani uchun ham namunadan o'rnak oladi. Irodasizlik o'zini-o'zi qo'lga ololmaslik insonga xos xususiyat emas deb ko'rsatgan edi, Beruniy.

Abu Ali Ibn Sino axloqlikning asosini yaxshilik va yomonlik kabi ikki tushuncha bilan ta'riflaydi. Ibn Sino inson kamolotining muhim axloqiy jihatlarini ham tahlil etadi va har biriga ta'rif beradi. Masalan, adolatni ruhiy lazzatning bosh mezonini sanaydi. Inson qanoat, jasurlik, donolik bilan adolatga ega bo'ladi, yomon illatlardan o'zini tiyib, yaxshilikni mustahkamlaydi, haqiqiy ruhiy lazzat oladi, deydi olim. Insondagi ijobiy axloqiy xislatlarga sahiylik, chidamlilik, kamtarlik, sevgi-muhabbat, mo'tadillik, aqllilik, ehtiyotkorlik, qat'iyatlilik, sadoqat, intilish, uyatchanlik, ijrochilik va boshqalarni kiritadi. Ibn Sino har bir axloqiy xislatning ta'rifini beradi:

- mo'tadillik – tan uchun zaruriy oziq va xulq me'yorlariga to'g'ri kelmaydigan ishlarni qilmaslik;
- saxiylik – yordamga muhtoj kishilarga ko'maqlashuvchi insoniy quvvat;
- g'azab – biror ishni bajarishda jasurlik;
- chidamlilik – inson o'z boshiga tushgan yomonliklarga bardosh beruvchi quvvat;
- aqllilik – biror ishni bajarishda shoshma-shosharlikdan saqlanuvchi quvvat deydi.

Inson hissiy va ma'naviy talablarni ajratib olish imkoniyatiga ega ekan, bu imkoniyat asta-sekin inson fe'l-atvoriga xos xislatga aylana boradi. Ibn Sino insonning shakllanishida uning atrofini o'rab olgan tashqi muhit, odamlar alohida muhim rol o'ynaydi, ana shu tashqi muhit va odamlar insonning atrof-dunyoni bilishgagina emas, balki uning xulqida yaxshi yoki yomon jihatlarining tarkib topishiga ham ta'sir etadi. Shuning uchun ham bolalarni tarbiyalashda ehtiyotkor

bo'lish keraqligini, bola yomon odatlarga o'rganmasligi uchun, uni yomon odatlardan, yomon muhitdan uzoqroq saqlash zarurligini uqtiradi. Ibn Sinoning tarbiyalash masalalariga keng o'rin berilgan. Chunki inson avvalo oilada kamolga etadi.

Yusuf Xos Hojibning "Qutadg'u bilig" asarida inson kamoloti masalasi markaziy masala bo'lib hisoblanadi. Mazkur asarda insonning jamiyat va hayotda tutgan o'rni, burch va vazifalari haqidagi muammolar o'ziga xos bir tarzda bayon etiladi. Yusuf Xos Hojib olimlarni hurmat etish keraqligini ta'kidlab, ilm ahlini qadrlasa, ilmsizlarni johil kishilar deb biladi. Dunyoda inson bilim va zakovati tufayli orzu-tilaqlarga, ulug'likka erishish mumkinligini aytadi. Lekin shunday bilim va zakovatning qadriga faqat xuddi o'zlariga o'xshagan donolar va zakovatlilar etadi. Johil va nodonlar bunday xislatlarga ega emas, deydi. Chunki jamiyatdagi barcha xatolar bilimsizlik, nodonlik, jaholat tufayli sodir bo'lishidan u qayg'uga tushadi, hayotda nodon va johillar ko'payib ketganligidan afsuslanadi.

Qutadg'u bilig" asarida insoniylik, rostgo'ylik, to'g'rilik, soflik, mehr-muhabbat, vafo, shafqat, muruvvat, insof, adolat, ishonch, sadoqat, xushmuomalalik, shirinso'zlik, saxovat, mardlik, himmatlilik, tavoze, hurmat va ehtirom, tadbirkorlik, aql, zakovat, halollik, ezgulik kabi xislatlar ulug'lansa, yolg'onchilik, noinsoflik, fisqu fasod, bevafolik, mehirsizlik, dag'allik, baxillik, nomardlik, quvlik, hurmatsizlik, nodonlik, johillik, haromxo'rlik, ochko'zlik kabi xislatlar qattiq qoralanadi.

Ahmad Yugnakiyning "Hibatul-haqoyiq" asari boshqa ta'limiy-axloqiy asarlar kabi insonni barkamol etishning ikkinchi belgisi bu uning xushxulqligidir, deyiladi. Shuning uchun adib asarda axloqlilikning tarkibiy qismi sanalgan tilni tiyish, mol-dunyoga hirs qo'yishning oqibatlari, saxovat va baxillik, kamtarlik va kibru havo va ochko'zlik haqida, zulm va jinoyat yo'lidan saqlanish haqida, harom va halolni farqlay olish, e'tiqod va sadoqat kabi muhim masalalar yuzasidan fikr yuritadi. U yaxshi xulq-odobni shakllantirish va yomon illatlardan saqlanish yo'llarini tavsiya etadi.

Yuqoridagilardan ko'rinib turibdiki, Ahmad Yugnakiyning "Hibatul haqoyiq" asari, yoshlarni ma'naviy kamolatga yo'llaydi, ijtimoiy hayotdagi kishilar o'rtasidagi ziddiyatlarni ahillik, saxovat, yaxshilik bilan hal etib, harislik, baxillik, jaholatni ilm-ma'rifat bilan bartaraf etishga da'vat etadi.

Abdulla Avloniy shaxsning shakllanishida ijtimoiy muhitning o'rnini alohida e'tirof etib, u shaxsdagi ijobiy va salbiy xususiyatlarni tarkib topishiga o'z ta'sirini o'tkazishini ta'kidlaydi. U "Turkiy guliston yohud axloq" asarida insonlarni xulq-atvor, xatti-harakat nuqtai nazaridan ikki guruhga bo'ladi [52; 120 b.]:

- yaxshi xulqli insonlar

- yomon xulqli insonlar

A.Avloniy bunday deydi:

“Axloq ulamosi insonlarning xulqlarini ikkiga bo‘lmishlar: agar nafs tarbiyat topib, yaxshi ishlarni qilurga odat qilsa, yaxshilikka tavsif bo‘lib, “yaxshi xulq”, agar tarbiyatsiz o‘sub, yomon ishlaydurgan bo‘lur ketsa, yomonlikg‘a tavsif bo‘lub, “yomon xulq” deb atalur”. U kishilarni yaxshi xulqlar sohibi bo‘lishga chaqiradi “Turkiy guliston yohud axloq” kitobining “Yomon xulqlar” bobi 18 bo‘limdan iborat bo‘lib, ular o‘z ichiga quyidagilarni oladi: g‘azab, shahvat, jaholat, safohat, xamoqat, atolat, xasosat, raxovat, anoniyat, adovat, namimat, g‘iybat, haqorat, jibonat, hasad, nifoq, ta‘ma, zulm, kizb. Alloma insonlarning bu xulqini “Saodati abadiyadan mahrum qiladurgan, ... va xalq nazaridan mazlum, hayoti jovidonimiz uchun ma‘lum bo‘lgan axloqi zamimalar”, deb ataydi [52; 120 b.].

Jaloliddin Rumi ham “Ma‘naviy masnaviy”sida inson xulq-atvoridagi salbiy xususiyatlar borasida o‘z qarashlarini bildiradi. U adovat, badjahillik, hasadgo‘ylik, aybjo‘ylik, g‘araz, qahr-g‘azabni qattiq qoralaydi va insonning eng qabih illatlari sifatida tavsiflaydi.

Uning ta‘kidlashicha, “hasad nafsga bog‘liq sifat bo‘lib, kishi o‘zidagi nuqsonni va begonaning kamolotini anglab etkach, kin-adovat va badjahillikdan bedavo ruhiy dardga giriftor bo‘ladi. Hasadchi hamisha o‘z qurbonini muayyan sifatdan mahrum bo‘lishini orzu qilib yashaydi. Bu dard uni hamisha ta‘qib aylaydi. Hasadchi ranj ichida o‘z o‘tiga qovriladi. Hasad murakkab sifatdir. Uning natijasi havfli va g‘oyatda og‘ir. O‘z nuqsonini anglagan kishi avvalo o‘z kamolati yo‘lida harakat qilmog‘i o‘rniga fazilat sohibining mahrumiyatini, xaloqatini istaydi. Xuddi shuning o‘zi nafsning zaifligini, darmondaligini isbotlaydi... Hasad mashaqqatli dovon. Undan kamdan-kam odamgina o‘ta oladi. Alloma “Ayb qidirmoq va ta‘na qilmoq insonning eng qabih illatlaridandir”- deydi. Bu ko‘ngilsiz hol bir odamning o‘zi nopisand bilgan kishiga nisbatan adovati mahsuli hisoblanadi. Kimki pok insonlar va Xudoning mardlariga ta‘na qilsa o‘z botini yuzidagi pardani olib tashlagan bo‘ladi. O‘zining bad niyatini oshkor aylaydi. Badnom va rasvo bo‘ladi.

Aybjo‘ylik ya‘ni bironing aybini timirskilab qidirmoq odamzotda dushmanlik tuyg‘usini urchitadi. Jamiyatda ixtilof va yovlik zaminini yaratadi. Kishilarni bir-biriga qarshilantiradi, ya‘ni ayb qidirganning ham aybi qidiriladi, uning hech narsasi pinxon qolmaydi.

Qahr-g‘azab, hasad va bahl kabi nopisand xislatlarning manbai tizginsiz nafsdur. Bu holat qaysi shaklda xoh hasadgo‘ylik, xoh molparastlik, xoh o‘zgalar haqqiga hiyonat tarzida bo‘lmasin, u alaloqibat insonning o‘ziga qaytadi”.

Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak, Jaloliddin Rumi o‘zining “Ma’naviy masnaviy”sida insoniyatning agressivlikka moyilligi, agressiv reaksiyalar, agressiv xulq-atvor shakllari xususida qarashlarini bayon etadi.

Alisher Navoiy “Mahbub ul-qulub” asarida insoniy fazilatlar va ezguliklarni madh etib, targ‘ibu-tashviq etish bilan cheklanmay, ayni zamonda odamlardagi yomon, xunuk, insoniylikka xilof xislatlarni, insonlar uchun, jamiyat uchun zararli, sharaflı inson sha’niga yarashiqsiz xulq-atvor va sifatlarni tanqid qiladi. Achchiq so‘zlik, nodonlik, yomon qiliqlilik, yolg‘onchilik kabi illatlarga berilgan kishilarni qoralaydi. Navoiy ana shu yomon, yaramas xislatlardan, illatlardan odamlarni xoli ko‘rishni istaydi. Karamli, muruvvatli, sadoqatli, yumshoq ko‘ngilli, shirinsuhan, muloyim bo‘lish kabi bir talay fazilatlarini Navoiy ko‘klarga ko‘tarib madh etadi.

“Achchiq tillik” eng yomon xususiyatlardan biri ekanligi haqida Alisher Navoiy shunday yozadi: “Achchiq til zaharli nayzadek sanchiladi. Ko‘ngulda til nayzasining jarohati bitmas, unga hech narsa malham bo‘la olmaydi”. Uning bu fikrida verbal agressiya, ya’ni salbiy his-tuyg‘ularni og‘zaki tarzda ifodalash shakli o‘z aksini topganligini ko‘rishimiz mumkindir.

Navoiy kishilarni ochiq chehrali bo‘lishga da’vat etadi va deydi, bunday kishilarning “ochiq yuzidan xaloyiqqa xursandlik va shirin so‘zidan ulug‘a shodlik etishadi”. Alisher Navoiy inson xulq-atvoridagi salbiy jihatlarni quyidagicha ifodalaydi:

“Yaxshilikka mukofotni qo‘pollik, odob bilan qilingan xushmuomala evaziga kekkayish, takabburlikdan o‘zgacha munosabatni ko‘rmaymiz. Birovga bir xizmat qilsang, undan o‘n zarb eyishga tayyor turmoq kerak, kimgaki bir tavoze’ ko‘rsatsang, ming qo‘pollik va dilsiyohlikka xozir bo‘lib turmog‘ing lozim. Har qanday xizmatkorlik qilib, uning evaziga jabr-jaf o‘rganing holda, sendan yana xizmat kutadilar. Har qancha vafodorlik ko‘rsatib, ko‘z oldida ranj-mashaqqat tortsang, yana qulluq ta’ma qiladilar. Do‘st sifatida joningni bermasang, joningga dushmanlik qiladilar, ularning ko‘ngli uchun nohaq qon to‘kishga rozi bo‘lmasang, qoningning to‘qilishiga guvohlik beradilar. Doim istagan ishlarini o‘z vaqtida qilsang-u, ammo bir gal kechiksang, so‘kib haqoratlaydilar”.

Alisher Navoiy “Mahbub ul-qulub” asarida yaxshi fazilatlar va yomon xislatlar borasida fikr bildirar ekan, axloqsizlik sifatida e’tirof etiluvchi agressiv xulq-atvor xususida ham to‘xtalib o‘tib, bu xulq-atvor shaklini hayotiy misollar orqali tushuntirishga harakat qiladi.

Boborahim Mashrab o‘zining “Mab dai nur” tasavvuf ruhida yozilgan nazmiy-badiiy, axloqiy-tarbiyaviy asarida poklik, xalollik, rostgo‘ylik, shafqatli, hayr-saxovatli bo‘lish kabi inson uchun eng janob xislatlarni targ‘ib qilib, tarannum etadi.

Asarda o'g'rilik, kazzob-yolg'onchilik, firibgarlik, maishiy buzuqlik, nopoklik, tilyog'lamalik, riyokorlik, ayniqsa g'urur va mutakabbirlik kabi jirkanch illatlar qattiq qoralanadi.

Mashrab "Mabdai nur"da dilozorlikning yomon, jirkanchli xulq ekanini takror-takror tilga oladi:

To tiriksan, sanga aytay yaqin,
Mo'rni ozurda ranjur qilmagin [5].

Xulosa.

Ta'kidlash lozimki, insonlar agressiv xulq-atvorlari orqali nafaqat o'zlariga, balki atrofidagi kishilarga ham ziyon etkazishlari tez-tez uchrab turadi.

"Mabdai nur"da qattiq qoralanadigan yana bir illat kazzoblik, yolg'onchilik, ko'zbo'yamachilik, firibgarlik, riyokorlikdir. Bunday yaramas fe'l-atvorli kishilardan o'zini uzoq tutishga harakat qiladi. Birovlarni ig'vo qilish, turli ayblar qo'yish, malomat toshlarini yog'dirish, yomonlash qattiq gunohlardan hisoblanadi.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, davrlar silsilasidan o'tib, bizning istiqloq davrimizgacha etib kelgan sharq allomalarini durdona asarlari bugungi kunda nodir qo'lyozmalar qatoridan munosib o'rin egallagandir. Ma'naviy merosimizdagi tarbiyaviy g'oyalar rivojiga bir nazar soladigan bo'lsak, qanchalik ma'naviy javohirlarga ega ekanligimizga ishonch hosil qilamiz.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Sh.Mirziyoyev – "Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz". Toshkent, "O'zbekiston" – 2017. 157-158-betlar

2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 29-apreldagi "Respublika iqtisodiyotiga to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalarni jalb qilish mexanizmlarini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-4300 – son qarori.

3. 2019–2023 yillarda Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy universitetida talab yuqori bo'lgan malakali kadrlar tayyorlash tizimini tubdan takomillashtirish va ilmiy salohiyatni rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori. PQ-4358-son. 2019-yil 17-iyun

4. Abdurahmon Jomiy. Tanlangan asarlar. – T: Adabiyot va san'at nashriyoti, 1971. – 354b.

Абрамова Г.С. Возрастная психология. Учеб. пособи для вузов М.: Академический проект. Альма Матер, 2005. – 698с.